

mumkin. "O'rgimchak" va "Sakkizoyoq" yasama mahsulotlarini juft-juft bo'lib, "Ilon" va "Quyon" yasama mahsulotlarini esa yakka tartibda bajarish tavsiya etiladi. O'qituvchi ishni boshlashdan avval reja tuzish va barcha kerakli materiallar hamda asboblarni tayyorlash zarurligini eslatadi.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Darsni suhbat orqali yakunlash tavsiya etiladi. Quyidagi savollar namuna bo'lishi mumkin:

1. Bugungi darsda qanday yangi ma'lumotlarni o'rgandingiz?
2. O'z ishingizni nimadan tayyorladingiz?
3. "Prujina" shaklidagi tasma (bo'lak)dan yana nimalar yashash mumkin?

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish;
- o'quvchilarda qo'l mehnati yordamida ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

14-DARS. SHOVQINLI NINACHI

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- hajmli applikatsiya yaratish uchun qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yopishtirish texnikasi haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirish;
- qo'l bola qog'oz konstruktordan foydalanishni va hajmli shakllar yashashni o'rgatish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarga bugungi dars mavzusini topishmoq orqali bilishni taklif qiladi:

Darvoza oldidagi moychechakka

Vertolyot qo'ndi –

Oltin rangli ko'zlari bor.

U kim ekan?

(Ninachi)

To'g'ri, bugun siz bilan ninachi yasaymiz.

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

O'qituvchi savollar beradi:

1. Ninachining qanday qismlari bor? (*tanasi, boshi, qanotlari*).

2. Tanasi va boshi qanday qismlardan tashkil topgan? (*halqachalardan*).

So'ngra o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda ish rejasini tuzishadi.

Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'rignoma berilgan.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Avvalo, o'quvchilar rangli qog'ozdan 10 ta har xil rangdagi tasma tayyorlab, har bir tasmani halqa shaklida yelimlab olishlari lozim. Keyin 5 ta shunday halqadan ninachining tanasini shakllantirish kerak. Navbatdagi bosqich - qanotlarni yasab, ularni darslikning 33-betida ko'rsatilganidek ninachi tanasiga yopishtirishdan iborat bo'ladi.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

O'quvchilarda ikkita karta mavjud: ko'k va qizil. Ular dars boshida va oxirida o'z kayfiyatlariga mos ravishda kartani ko'rsatadilar. Bu holda biz mashg'ulot davomida o'quvchining hissiy holati qanday o'zgarayotganini kuzatishimiz mumkin.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarga qog'oz tasmalaridan ninachi yasashni o'rgatish;
- o'quvchilarga o'zlari yasagan qog'oz konstruktordan foydalanib, hajmli shakllar yaratishni o'rgatish.